

## “TAHAKKUM” TUSHUNCHASI GENEZISI

Mavlanov Nurali Rayimovich

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi magistranti.*

**Annotatsiya.** *Tahakkunning o'zagi - hukm. U hozirgi tilimizdagi hukmdor, hokim, mahkum, hakam so'zlari tahakkum bilan o'zaktosh.*

*Arab tilining balog'at ilmi qoidalariga ko'ra, bir so'zni o'zining antonimi o'rnida qo'llash tahakkum deyiladi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash holatlar bor. Masalan, odamlar og'zi shaloq kishiga nisbatan qantovuz (qand + og'iz = shirinso'z) yoki ezma odamga nisbatan kamgap iborasini ishlatishi mumkin. Bunday o'rinlarda so'z o'zining ziddi ma'nosini tashiydi.*

*Jumladagi tahakkumga misol. Ishga sababsiz uch kun kelmagan xodimga sherigi: “Boshliqqa uchrash, seni ajoyib mukofotlar kutib turibdi”, deyishi mumkin. Bu yerda gap mukofot haqida emas, albatta. Jazo haqida. Mukofot so'zi o'zining antonimiga sinonim bo'lib kelyapti.*

*Ushbu maqolada tahakkunning lug'aviy ma'nosi ifodalovchi manbalar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tahakkum, lug'at, hadis, balog'at ilmi, uslub, istelohiy.*

Tahakkunning lug'aviy ma'nosi: Mashhur adib, tarixchi, islom fiqhi va arab tilining arab allomasi buyuk imom Jamoliddin Muhammad ibn Mukarram Ansoriy Afriqiy Misriy rohimuhallohning (to'liq ismlari: Abulfazl Abdulloh ibn Muhammad ibn Abulhasan ibn Ahmad ibn Abulqosim ibn Habaqo ibn Muhammad ibn Manzur ibn Mu'ofiy ibn Xumayr ibn Royyan ibn Sulton ibn Komil ibn Qurro ibn Komil ibn Surhon ibn Jobir ibn Rifo'a ibn Jobir ibn Rvayfi' Ansoriy Xazrajy roziyallohu anhu, 630-711 hijriy = 1232-1311 milodiy<sup>69</sup>) qalamlariga mansub bo'lgan “Kitob lison al-arab” (Arab tili kitobi) nomli kitobning **هَكَم** bobida quyidagilar bayon etilgan:

**الهَكْمُ:** *المقتحم على ما لا يعنيه، الذي يتعرض للناس بشره،*

Ya'ni, “al-hakim” so'zi insonlarni yomonligi bilan qarshi oladigan, o'ziga tegishli bo'lmagan narsalarga tajovuz qiladigan kimsa, ma'nosini anglatadi.

**تَهَكَّمَ عَلَى الْأَمْرِ وَتَهَكَّمَ بِنَا:** *زرى على الامر وعبث بنا،*

Ya'ni, “tahakkama 'ala-l-amr va tahakkama bina” jumlasini ishni yengil sanada, bizni kamsitdi, degan ma'noni ifoda etadi.

**التَّهَكُّمُ:** *التكبر، و المُسْتَهَكِمُ: المُستكبر،*

Ya'ni, “al-tahakkum” so'zi o'zini kiborli tutish ma'nosini, “al-mustahkim” so'zi esa ulug'likni xohlovchi, degan ma'noni ifoda etadi.

**الْمُتَهَكِّمُ:** *المُتَكَبِّرُ، وهو أيضا الذي يتهدم عليك من الغيظ والحنق،*

Ya'ni, “al-mutahakkim” so'zi kiborli, shuningdek, o'zgaga g'azab va adovat misol munosabatlar bilan qarshi chiquvchi, degan ma'nolarni ifoda etadi.

<sup>69</sup> ابن منظور محمد بن مكرم المصري. لسان العرب. الطبعة الاولى. دار صادر، بيروت، 2015. باب هكـ. ج 1. ص 8/9،

تَهَكَّمْتُ الْبُئْرُ: تَهَدَّمْتُ،

Ya'ni, "tahakkamtu-l-bi'r" jumlasini quduqni buzdim, degan ma'noni ifoda etadi.

السَّيْلُ الَّذِي لَا يُطَاقُ،

Ya'ni, "As-Sayl allazi la yutoqu" jumlasini qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan ayovsiz sel, degan ma'noni ifoda etadi.

التَّهَكُّمُ: الاستهزاء، وَفِي حَدِيثِ أُسَامَةَ: "... ... فَخَرَجْتُ فِي أَثَرِ رَجُلٍ مِنْهُمْ جَعَلَ يَتَهَكَّمُ بِي"، أَي: يَسْتَهْزِئُ

وَيَسْتَخَفُّ،

Ya'ni, "at-tahakkum" istehzo, degan ma'noni ifoda etadi.

Usoma roziyallohu anhunging hadislarida keltirilgan "yatahakkamu" jumlasini "... ... men (jang asnosida) ulardan (ya'ni, dushman qo'shini orasidan) meni past sanab, kamsitib yuradigan bittasini izidan tushdim", degan ma'noni ifoda etmoqda<sup>70</sup>.

Ko'rinib turibdiki, tahakkum so'zining bir qancha ma'nolari mavjud. Jumladan, "buzmoq", "kamsitish", "mensimaslik", "man-manlik", "o'zini katta tutish", "qarshilik ko'rsatib bo'lmaydigan ayovsiz sel", "istehzo", "past sanash", "ikkinchi tomonga hujum qilish", "qarshilik ko'rsatish", "g'azab" ma'nolari shular jumlasidandir.

Tahakkum so'zi istelohda badi' ilmiga doir alohida fan bo'lib, u holat taqozasiga zid ravishda nutq so'zlashdir. Zohiriy ma'nosida jiddiylik bo'lsa, ichki ma'nosida esa hazl mavjud.

Tahakkum uslubida bashorat qo'rqitish ma'nosida, xushxabar va yaxshilik va'dasi yomonlikdan xabar, maqtov va olqishlar istehzo va masxara ma'nosida ishlatiladi. Bu ma'nolar gapning siyoqidan tushunib oliniladi<sup>71</sup>.

Tahakkum uslubi so'zlovchi tomonidan so'zlanayotgan tomonga nisbatan kamsitish va istehzo ishidir. Bu uslub kamsitilgan va istehzo qilingan tomonni yanada darg'azab qilishi barobarida, unga qaratilgan ta'sir kuchini oshiradi<sup>72</sup>.

Yozishmalardagi eng ta'sirli uslub bu tahakkum uslubidagi yozishmalardir<sup>73</sup>.

Albatta, ushbu o'rinda "uslub" so'zi haqida ham to'xtalib o'tmoq kerak.

أسلوب - "uslub" so'zi (arabcha) lug'atda "uzun yo'l" ma'nosini ifoda etadi. Shuningdek, uning "yo'l", "ko'rinish", "yo'nalish" misol ma'nolari ham mavjud.

Masalan, **أَنْتُمْ فِي أُسْلُوبٍ سَوْءٍ** "Antum fi uslubin su'in", deyilsa, buning ma'nosi "Sizlar yomon uslubdasizlar", ya'ni "yo'ldasizlar", deganidir.

Yoki mutakabbir kimsaga nisbatan **إِنَّ أَنْفَهُ لَفِي أُسْلُوبٍ** "Inna anfahu lafi uslubin" deyilsa, buning ma'nosi "Haqiqatki, uning burni bir ko'rinishda", ya'ni "takabburona ko'rinishda", deganidir<sup>74</sup>.

Uslub so'zi istelohda alohida bir fan sanaladi.

Masalan, **أَخَذَ فُلَانٌ فِي أُسَالِيْبٍ مِنَ الْقَوْلِ، أَي فَنُونٍ مَتْنَوَعَةٍ** "Axoza Fulanun fi asaliba minal-qovli" deyilganida, "Falonchi so'zlashishda turfa uslublarni, ya'ni yo'nalishlarni qo'lladi", degan ma'no o'z aksini topadi<sup>75</sup>.

<sup>70</sup> ابن منظور محمد بن مكرم المصري. لسان العرب. الطبعة الاولى. دار صادر، بيروت، 2015. باب هكـ. ج 6. ص 345/344.

تحرير التحرير: 552/1، البرهان في علوم القرآن للزركشي: 58/4، خزنة الأدب و غاية الأرب لابن حجة الحموي: 215/1، الكليات للكفوي: 303،

الدر المصون للسمين الحلبي: 629/9،<sup>72</sup>

الوساطة بين المتنبي و خصومه للجرجاني، 24<sup>73</sup>

تحرير التحرير: 127،<sup>74</sup>

لسان العرب لإب منظور: 471/1، المعجم الوسيط لإبراهيم مصطفى: 973/1،<sup>75</sup>

Ko'rinib turibdiki, biz tahakkum, deb nomlanayotgan **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” atamasi lug'atda bir emas, balki “tahakkum” ma'nosi barobarida o'zgani kamsitish, tahqirlash, o'zini kiborli tutish, achchiqlanish, g'azablanish, buzib tashlash, o'zgaga tajovuz va hujum qilish ma'nolarini ham ifoda etadi.

Ushbu ma'nolarni umumlashtirgan holda **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” bir tomonni o'ziga xos bo'lgan odatiy xilqat va tabiatini tark etib ikkinchi tomondan sodir etilgan holatga nisbatan salbiy hissiyotlarini yuzaga chiqarishi, noroziligini ifoda etishi demakdir.

Zotan, tahakkum, o'zgani kamsitish, tahqirlash, o'zini kiborli tutish, achchiqlanish, g'azablanish, buzib tashlash, o'zgaga tajovuz va hujum qilish holatlarining barchasi insonni o'ziga xos bo'lgan insoniylik xilqati va tabiati doirasidan chiqishni taqoza qiladi.

Qur'oni Karim kofirlar, mushriklar va munofiqarning nomaqbul e'tiqodlari, ishlari, so'zlari va holatlarini zikr qilish asnosida tahakkum uslubiga juda ham boydir.

Alloh taoloning kalomida tahakkum uslublarini ko'p qo'llanilishi mazkur misol kimsalarning sha'nini pasaytirish, tahqirlash, shuningdek, ularning tutgan yo'llari kamsitilishi va istehzo qilinishiga munosib ekanligiga dalolat qilishi uchundir.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, Qur'oni Karimdagi tahakkum va uning uslublari Alloh taologa nisbat berilganida haqiqiy ma'nodagi istehzo, ya'ni kamsitish emas. Balki, o'z holatlarini ongli ravishda tushunmayotgan kimsalarga ularning tutgan yo'llari naqadar past va haqir hamda oqibati o'ta xatarli yo'l ekanligini anglatish, ularni, jumladan o'zgalarni ham mazkur yo'llarining alamlari oqibatidan ogohlantirish maqsad qilingan<sup>76</sup>.

Tahakkumning istelohiy ma'nosi: Xitob qilinayotgan tomonga ma'lum bir maqsadda, mutazoi holga<sup>77</sup> zid ravishda gapirilgan har qanday gap **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum”, deb nomlanadi<sup>78</sup>.

Lug'aviy va istelohiy ma'nolar o'rtasidagi bir-biriga bog'liklik jihatlar: Biz tahakkum, deb nomlayotgan **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” so'zining lug'aviy va istelohiy ma'nolari o'rtasida bir-biriga bog'liklik jihatlar mavjud ekanligi yuqoridagi ta'riflar orqali oydinlashdi. Buni biz ikki tomonlama ko'rishimiz mumkin:

Birinchi ko'rinish: **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” so'zining lug'aviy ma'nolaridan eng mashhuri bu tahakkum. Ushbu so'z istelohda ham aynan ushbu ma'noni ifoda etadi.

Ikkinchi ko'rinish: har ikki ma'noda ham, ya'ni **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” so'zini lug'aviy va istelohiy ma'nosida ham asl holatdan chiqish va muqtazoi holga zid so'zlashuv jarayoni mavjud.

Bunga ko'ra **التَّهَكُّمُ** - “tahakkum” so'zini lug'aviy ma'nosi umumiyroq, istelohiy ma'nosi esa xosroqdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, Qur'on matnidagi istehzo tuzilmalari, ularning darajalari: fonetik, morfologik, leksik, grammatik va semantik hamda ularning Qur'on matnidagi boshqa nutq tuzilmalari undagi ma'no va maqsadlarni munosib ta'sir kuchi bilan ochiqlab berishdir.

<sup>76</sup> الحاشية علي الكشاف للشريف الجرجاني: 187، 76

<sup>77</sup> “Муқтазои ҳол”, деб гапни сўз юритилаётган ҳолат ва ўринга мувофиқ, муносиб келиши демакдир. <sup>78</sup> العلوي. يحيي بن حمزة. كتاب الطراز المتضمن لأسرار البلاغة وعلوم حقائق الإعجاز. مطبعة المقتطف بمصر. 2005، ص163.

Shu o`rinda yana bir ma`lumotni qayd etib o`tmoq lozim. Ayrim rasmiy manbalarda tahakkum tushunchasi haqida nono`g`ri ta`riflar berilgan. Masalan, ulardan birida quyidagi ma`lumotlar keltirilgan:

**Tahakkum** bugungi tilimizda ishlatilmaydi. Lekin, Navoiy va Bobur asarlarida ishlatilgan. “Navoiy asarlari lug‘ati” *tahakkum* so‘zini ikki ma’noda sharhlagan:

-  
ukm yuritish, zo‘rlik bilan hukmronlik qilish, ustun chiqish;

-  
irovning hukmini, amrini istar-istamas qabul etish.

“Boburnoma” lug‘atida esa *hukm qilish yo‘li, ustun chiqish yo‘li*, deb izohlabdi.

“... El qochib ul viloyatqa bordi, tahakkum tariqi bila tama’ qiladur, agar burunroq bu so‘z aroda bo‘lsa edi, filjumla vajhi bor edi, alarning tahakkumini kim tortor bo‘lg‘ay?”

Shu parcha “Boburnoma” tabdilida bunday berilibdi:

“Yana biri buki, el qochib u viloyatlarga borgan shunday bir paytda buyruq yo‘sinida bu talab qo‘yildi.

Agar bu taklif burunroq oraga tushsa, balki o‘rinli bo‘lar edi. Ularning hukmiga kim ham rozi bo‘lardi?!”

Yuqoridagi jummalarda *tahakkum* bir o‘rinda buyruq, hukm yuritish, keyingisida hukm qilish ma‘nosida kelyapti.

Ushbu ta‘rigdagi xatolik shuki, **التَّهَكُّم** – “tahakkum” so‘zidagi birinchi asl o‘zak harf “ha” (**الهاء**) emas, balki “ha” (**الحاء**) harfidir. Navoiy va Bobur asarlarida ishlatilgan **التَّحَكُّم** – “tahakkum” so‘zidagi birinchi asl o‘zak harf “ha” (**الحاء**) harfidir. Mana shu holatda ushbu atamaning ma‘nosi yuqorida aytilgan ma‘nolar, ya‘ni buyruq, hukm yuritish, hukm qilish ma‘nosini ifoda etadi.

Tahakkumning sabablari: Aslida har qanday gapdagi asl narsa uni jiddiylik va mavjud holatga muvofiq kelishidir. Lekin, ba‘zi holatlarda so‘zlovchi jiddiylik doirasidan hazl uslubiga o‘tishi, haqiqiy ma‘noni tark etib, majoziy ma‘noni iroda etishi uchun ma‘lum bir sabablarni his etadi. Bu gapni mavjud holatga teskari, zid va xilof ravishda so‘zlash maqsadida emas, balki holat so‘zlovchidan shuni taqoza etadi.

Hatto, shunday holatlarda so‘zlovchini jiddiylik doirasidan hazl uslubiga o‘tishi, haqiqiy ma‘noni tark etib, majoziy ma‘noni iroda etishi gapning ta‘sir kuchini oshirishda qo‘l keladi. Bu ish gapni jiddiylik va mavjud holatga muvofiq gapirish foydasi kam, iroda etilgan ma‘no va maqsadni ifoda etib berish darajasi kam bo‘lganda qo‘llaniladi. Bu borada tahakkum uslubi juda ham qo‘l keladi.

Tahakkumning maqsadlari: So‘zlashuv va muloqotda tahakkum uslubi shu qadar qiziq va ahamiyatli, u bilan gapning ma‘no va maqsadi hamda ta‘sir kuchi ortadi. Yosh avlod, shuningdek, nomuvofiq yo‘ldagi kimsalarni ogoh etish va to‘g‘ri yo‘lga chorlashda juda ham qo‘l keladi. Natija o‘laroq ularni egri yo‘ldan qaytarish, mavjud illatlardan qutqarish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, yaxshi amal va xulqlarga odatlantirishga erishiladi.

Bir so‘z bilan aytganda tahakkum uslubi nomuvofiq holatni isloh qilish, ayb va nuqsonlardan poklashga qaratilgan asl maqsad va g‘oyalarni ushalishida qo‘l keladigan oltin uslubdir.

Bu uslubni jamiyatning achinarli bo‘lgan asl holini chiroyli tarzda ifoda etib beruvchi rostgo‘y ko‘zgusi, desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bundagi asosiy maqsad bu – isloh yo‘lidagi zavq va shavqdir. Lekin, uning maqsadlarini chegaralab bo‘lmaydi.

Ular jumlasidan:

jismoniy ayblar, masalan: yuz, soqol, burun, ovoz misol butun tana bilan bog‘liq ayblarni isloh qilish;

nafs bilan bog‘liq ruhiy ayblar, masalan: baxillik, qo‘rqoqlik, ta‘magirlik, befahmlilik, riyo, munofiqlik kabi ayblarni isloh qilish;

botil e‘tiqodlarni isloh qilish;

tahakkum orqali ikkinchi tomonning quvonchi va shodligini oshirish;

maqtash va olqishlash;

jiddiylik iroda etilgan holda hazllashish.

Ba‘zan, salbiy kimsalar tomonidan o‘z salbiy g‘arazlari ta‘sirini oshirish maqsad qilinishi ham mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar.**
2. “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni // <https://lex.uz/docs/4561730>
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>
4. Mirziyoyev Sh.M . Erkin va farovon,demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. 2020-yilning 24-yanvarida Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://www.lex.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. - Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr. 258- son.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni / Xalq so‘zi, 2019 yil 22 oktyabr.
8. **Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.**
9. **O‘zbek tilidagi adabiyotlar:**
10. An-Na‘im “arabcha-o‘zbekcha lug‘at”, -Toshkent: Abdulla Qodiriy nashriyoti, 2003 – 959 b.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (I jild). - Toshkent: “O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti,. -B. 665.
12. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. -T.: HILOL-NASHR. 2017. -B.411.

13. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. Tafsiri Irfon. –T.: Sharq HMAK/ 2019. -B.411.
- Arab tilidagi adabiyotlar:
- 2.1. ابن أبي الإصبع المصري، بديع القرآن، تقديم و تحقيق حفني محمد شرف، نهضة مصر، إحياء التراث الإسلامي، 2018،
- 2.2. ابن أبي الإصبع المصري، تحرير التحبير في صناعة الشعر والنثر و بيان إعجاز القرآن، تحقيق و تقديم الدكتور حفني محمد شرف، الجمهورية العربية المتحدة، المجلس الأعلى للشؤون الإسلامية، لجنة دار إحياء التراث الإسلامي، 2017،
- 2.3. ابن منظور محمد بن مكرم المصري، لسان العرب، الطبعة الاولى، دار صادر، بيروت، 2015،
- 2.4. أبو البركات عبد الله بن أحمد بن محمود النسفي، ت 710 هـ، مدارك التنزيل و حقائق التأويل، دار ابن كثير، دمشق – بيروت، 2019/1440،
- 2.5. أبو عبد الله محمد بن أحمد الأنصاري القرطبي، ت 671 هـ، الجامع لأحكام القرآن، دار الكتاب العربي، بيروت – لبنان، 2017/1438،
- 2.6. الأستاذ الدكتور وهبة الزحيلي، ت 2015 م، التفسير المنير في العقيدة و الشريعة و المنهج، دار الفكر، دمشق – بيروت، 2014/1435،
- 2.7. الأستاذ الدكتور وهبة الزحيلي، ت 2015 م، الموسوعة القرآنية الميسرة، دار الفكر، دمشق – سوريا، 2014/1435،
- 2.8. الإمام أبو داود سليمان بن الأشعث الأزدي السجستاني، ت 275 هـ، كتاب السنن، تحقيق محمد عوامة، دار اليسر، المدينة المنورة، 2010/1431،
- 2.9. الإمام أبو منصور محمد بن محمود الماتريدي، ت 333 هـ، تأويلات أهل السنة، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2005،
- 2.10. الإمام الحافظ أحمد بن علي بن حجر العسقلاني، ت 852 هـ، فتح الباري علي شرح البخاري، دار الفحاء الرياض، 2000/1421،
- 2.11. الإمام العلامة بدر الدين أبو محمد محمود بن أحمد العيني، ت 855 هـ، عمدة القاري شرح صحيح البخاري، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2018/1439،
- 2.12. الإمام ناصر الدين أبو سعيد عبد الله بن عمر الشيرازي البيضاوي، ت 1286 هـ، أنوار التنزيل و أسرار التأويل، دار المعرفة، بيروت – لبنان، 2017/1438،
- 2.13. جار الله أبو القاسم محمود بن عمر بن محمد بن عمر الخوارزمي الزمخشري، ت 538 هـ، الكشاف عن حقائق التنزيل و عيون الاقاويل في وجوه التأويل، عالم الكتب، بيروت، 2016،
- 2.14. جلال الدين عبد الرحمن بن أبي بكر السيوطي، ت 911 هـ، دار ابن حزم، بيروت – لبنان، 2018/1439،
- 2.15. الدكتور محمد راتب النابلسي، ندبر آيات الله في النفس و الكون و الحياة، الفرسان للنشر و التوزيع، الأردن – عمان، 2017/1438،
- 2.16. العلامة التفتازاني، ت 791 هـ، البلاغة الصافية في المعاني و البيان و البديع، بيت العلم، 1416،
- 2.17. العلامة الشيخ أحمد بن محمد الصاوي المصري الخلوتي المالكي، ت 1241 هـ، حاشية الصاوي علي تفسير الجلالين، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2018/1439،
- 2.18. العلامة المحدث أبو الحسن عبيد الله بن العلامة محمد عبد السلام المباركفوري، ت 1414 هـ، مرعاة المفاتيح شرح مشكاة المصابيح، مدار القبس، الرياض، 2017/1438،
- 2.19. العلامة محمود بن حافظ حسن المغنسي، مغني الطلاب شرح متنايساغوجي في علم المنطق للإمام العلامة أثير الدين الأبهري، دار الفحاء، دمشق – سوريا، 2018/1439،

- 2.20. العلوي يحيى بن حمزة، كتاب الطراز المتضمن لأسرار البلاغة وعلوم حقائق الإعجاز، مطبعة المقتطف، بمصر، 2001،
- 2.21. علي الجارم و مصطفى أمين، البلاغة الواضحة، البشري، كراتشي – باكستان، 2015/1436،
- 2.22. القرآن الكريم،
- 2.23. مجموعة المؤلفين، دروس البلاغة، دار ابن حزم، بيروت – لبنان، 2012/1433،
- 2.24. محمد تقيّ العثماني، فتح الملهم بشرح صحيح مسلم، دار القلم، دمشق، 2006/1427،
- 2.25. محمد علي الصابوني، ت 1442 هـ، روائع البيان تفسير آيات الأحكام من القرآن، الدار العالمية، جاكارتا – أندونيسيا، 2015/1436،
- 2.26. محمود أنور شاه بن معظم شاه الكشميري الهندي، ت 1352 هـ، العرف الشذوي شرح سنن الترمذي، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2007/1428،
- 2.27. نور الدين علي بن سلطان الهروي الملكي الحنفي، ت 1014 هـ، أنوار القرآن و أسرار الفرقان، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2015،
- 2.28. نور الدين علي بن سلطان الهروي الملكي الحنفي، ت 1014 هـ، مرقاة المفاتيح شرح مشكاة المصابيح، دار الكتب العلمية، بيروت – لبنان، 2015،

### 1. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

#### I. Internet materiallari va elektron resurslar:

- 3.1. [www.bukhari.uz](http://www.bukhari.uz)
- 3.2. [www.jiau.uz](http://www.jiau.uz)
- 3.3. [www.islom.uz](http://www.islom.uz)
- 3.4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
- 3.5. [www.muslim.uz](http://www.muslim.uz)
- 3.6. [www.oliymahad.uz](http://www.oliymahad.uz)
- 3.7. [www.religions.uz](http://www.religions.uz)